

## **ABDULHAMID II DAVRIDA (1876-1909) XOTIN-QIZLAR TA'LIMI**

**Izzatova Ra'no Ulug'bekovna**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistrant

Ranoizzatova377@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada, Usmonli davlatining sultoni Abdulhamid II davridagi xotin-qizlar ta'limi, ta'limdagi amalga oshirilgan islohotlar to'g'risida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Sibyoniye, Ibtidaiye, Rusdiye, Idadiye, Sanayi, Darulmuallimot.*

### **ABSTRACT**

*This article talks about women's education and reforms in education during the reign of Sultan Abdulhamid II of the Ottoman state.*

**Key words:** *Sibyoniye, Ibtidaiye, Rushdiye, Idadiye, Sanayi, Darulmuallimot.*

### **KIRISH**

XIX asr Usmonli imperiyasining ijtimoiy hayotga ta'sir qiluvchi ko'plab voqealar sodir bo'lganligi shuningdek, jamiyatni birlashtirish va shakllantirish uchun tegishli siyosatlar ishlab chiqilgan davr bo'lganligi bilan harakterlanadi. Jamiyatni birlashtirish va shakllantirishning bir tartibi bu ta'lim sohasida bo'ldi. Sulton Mahmud II. (1808-1839) davrida ta'limni rivojlantirish uchun qilingan ishlar, Sulton Abdulhamid II (1876-1909) davrida davom ettirildi. Ta'limning butun mamlakat bo'ylab tarqalishiga harakat qilindi va boshlang'ich ta'limdan oliy ma'lumotgacha bo'lgan qizlar va o'g'il bolalarni tarbiyalashda miqdor va sifat jihatidan ham muhim qadamlar tashlandi.

XIX asr boshlarida Usmonli imperiyasidagi ta'lim tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak qiz va o'g'il bolalarning birdek ta'lim olishi uchun Sibyon maktabi deb atalgan boshlang'ich maktablar mavjud edi. 5-6 yoshdan boshlab o'g'il va qiz bolalar boradigan ushbu maktablarda ta'lim taxminan 3-4 yil davom etardi. Ushbu maktablarning asosiy maqsadi musulmon bolalarni o'qish va yozishga o'rgatish, Qur'oni Karimni yodlash va ba'zi bir asosiy diniy bilimlarni berishdan iborat bo'lgan. Ammo bu maktablarning asosiy dars rejalari yo'q, vaqf hisobidan tashkil etilgan maktablar edi va tabiiyki vaqt o'tishi bilan ta'lim darajasi ham pasayib ketdi. Bundan tashqari Sibyon maktablarini tugatgandan so'ng ba'zi o'g'il bolalar ta'limini madrasalarda davom ettirishi mumkin, qiz bolalarning esa bunday imkoniyatlari yo'q. xalqning qarashlarida ham qiz bolalarning o'qishi, ta'lim olishiga extiyoj yo'q deb hisoblab qizlarni turmushga berilardi. Ba'zi moddiy holati yaxshi bo'lgan oilalargina

o‘z qizlarini o‘qituvchi yollab o‘qitar yoki bo‘lmasam otasi ilmi inson bo‘lsa qizlar otalaridan ta‘lim olishardi.<sup>1</sup>

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ta‘limdagi ba‘zi kamchiliklarni bartaraf etish va islohotlarni amalga oshirish uchun Usmonli sultoni Mahmud II tomonidan tashkil etilgan komissiya davlatdagi qiyinchiliklarining eng muhim sabablaridan biri ta‘lim tizimining zamon ehtiyojlarni qondira olmayotganligini shuningdek, chora sifatida yangi G‘arb usulidagi uch bosqichli ta‘lim tizimini tashkil etishni taklif qildi. Ushbu yo‘nalishda 1839-yil 11-martda islohotlar boshlandi. Bu davrda ochilgan maktablarning eski maktablardan farqi endilikda o‘quvchilarga Arab va fors tillari, diniy darslar bilan birgalikda bir G‘arb tilini o‘qitish bo‘ldi. 1945-yil, 1957-yil, 1969-yillarda ta‘limga doir qarorlar qabul qiladigan tashkilotlar yuzaga keldi<sup>2</sup>.

Xususan Usmonli davlatida 1969-yil “Maorif-i Umumiye Nizomnomasi” tayyorlandi. Bu nizomnomaning axamiyatli jihati shundaki qizlar uchun ochiladigan o‘rta maktablarga doir muhim qoidalar kiritildi. Unga ko‘ra, “500 dan ortiq xonadonli har mahallada qizlar uchun o‘rta maktablar ochiladi. Sibyon maktablarida bo‘lgani kabi, qizlarning o‘rta maktablarida ham o‘qituvchi ayollar dars beradi va agar ayol o‘qituvchilar yetarli bo‘lmasa, qizlarning o‘rta maktablarida bo‘lgani kabi o‘rta maktablarda ham tegishli erkak o‘qituvchilar tayinlanishi mumkin”. Ushbu maktablarda o‘qitiladigan kurslar, maktabning o‘qish muddati, maktabda ishlaydigan o‘qituvchilarning malakasi va soni, maktabga qabul qilinadigan o‘quvchilarning malakasi kabi masalalar ham bu nizomnomada batafsil bayon etilgandi<sup>3</sup>.

1869-yilgi Nizomnomaning to‘qqizinchi moddasida olti va o‘n yoshdagi qizlarning boshlang‘ich ta‘limi majburiy etib belgilab qo‘yildi. Shuningdek, O‘n oltinchi moddasida qiz va o‘g‘il bolalarni alohida o‘qitish va Sibyon maktablarini ham ayri-ayri tashkil etish belgilab qo‘yildi. Lekin alohida qizlar uchun birinchi qizlar Sibyon maktabi faqat 1880-yilda Komil afandi tomonidan ochilgan<sup>4</sup>.

1876-yil taxtga kelgan Sulton Abdulhamid II davrida boshlang‘ich ta‘lim bilan bog‘liq bo‘lgan muommoni bartaraf etish maqsadida asosiy qonun ya‘ni konstitutsiyaning 114-moddasida boshlang‘ich ta‘lim majburiy etib belgilab qo‘yildi. Endilikda qiz va o‘g‘il bolalarni o‘qitish bo‘yicha qonuniy majburiyat yuzaga keldi.

<sup>1</sup> Sebel Dulum, Osmanlı devletinde kadının statüsü eğitimi ve çalışma hayatı (1839-1918), Eskişehir 2006, s. 24-25.

<sup>2</sup> Cezmi Eraslan, Objektiften Yansıyanlara Sultan II. Abdülhamid döneminde eğitim, Üsküdar Belediyesi, İstanbul 2017, s.14

<sup>3</sup> 1869 Maarif-i Umumiye Nizamnamesi hakkında daha detaylı bilgi için bkz. Mahmut Cevat İbnü’ş Şeyh Nâfi, Maârif-i Umumiye Nezareti Târihçe-i Teşkilat ve İcrââtı -XIX. Asır Osmanlı Maarif Tarihi-, Yeni Türkiye Yayınları, Ankara, 2001, s. 424-459.

<sup>4</sup> Esmâ Parmaksız, II.Abdülhamid dönemi (1876-1909), eğitim sistemi eğitim yapıları ve askeri Rüşdiyeler, İstanbul 2008, s. 56

Usmonli ta'lim tizimidagi majburiy ta'limdan foydalangan holda qizlarni ham jamoat hayotiga kiritish kerak degan fikr konstitutsiyaning ushbu moddasi bilan kun tartibiga keltirildi<sup>5</sup>.

Abdulhamid davrida boshlang'ich ta'lim beradigan maktablar ikkiga ayrildi. Birinchisi Sibyoniye maktablari bo'lsa ikkinchisi Ibtidoiye deb nomlangan maktablardir. Sibyoniye maktablarida darslar eski va an'anaviy usullar bilan olib borilardi. Ushbu maktablar, Abdulhamid II davridan oldin har bir qishloq va mahallada mavjud bo'lgan. Davlat bu maktablarning ta'lim, binolar va o'qituvchilar jihatidan yetarli darajada emasligini bilar edi. Ammo bu maktablardagi muommalarni hal qilish oson emas edi. Chunki jamiyatning ma'lum bir qismi bu maktablarni shu tarzda qabul qilgandi. Shu bilan birga, ushbu maktablarni isloh qilish davlat ulamolariga ham zarar keltirishi mumkin va bu davlatga zarar yetishi bilan barobar edi. Ushbu maktablarning ta'limni davom ettirishi uchun diniy ta'lim bilan birga yangi usul bilan ta'lim berish sharti qo'yildi. Boshqa tomondan, Yangi tashkil etilgan Iptidoiye maktablari davr ehtiyojlariga javob beradigan tarzda ta'lim beradigan maktablarga aylandi. Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda dual tizim shakllandi. Ushbu tizim bilan Sibyon maktabi an'anaviy ta'limni davom ettirdi, iptidai maktabi esa innovatsion ta'lim tizimini qabul qildi<sup>6</sup>.

1873-yilda Nuru usmoniy masjidida, yangi tartib asosida tayyorlangan o'quv dasturini amalga oshirish va tajribasi uchun maktab ochildi. 1880 yilga kelib Istanbulda 19 ta yangi turdagi maktablar mavjud edi, ulardan 3 tasi qizlar uchun, 16 tasi o'g'il bolalar uchun bo'lgan<sup>7</sup>.

1905-1906 yillarda Usmonlida qizlar uchun 304 ta rasmiy, 36ta xususiy boshlang'ich ta'lim beradigan-ibtidoiy maktablar mavjud edi. Raqamlardan ko'rib turibmizki Abdulhamid II davrida o'g'il bolalar ta'limi bilan birga qizlarning boshlang'ich ta'limiga ham katta e'tibor berilgan<sup>8</sup>.

Usmonlida qizlarning o'rta ta'lim olishi uchun Ruşdiye deb atalgan maktablar ham mavjud bo'lgan. 1859 yilda, Istanbul Sultanahmetda, Jevri Xalfa tomonidan qizlar uchun o'rta ta'lim beradigan birinchi Ruşdiyelar ochildi. Biroq, bu maktab dastlab sakkiz yoki o'n yoshli qizlarni maktabga yuborishga odatlanmagan jamoatchilik tomonidan unchalik e'tiborga olinmadi. So'ng shu davrda chiqarilgan Taqvim i vekayi gazetasi orqali qizlarni maktabga yuborish to'g'risida e'lon qilindi<sup>9</sup>.

Ruşdiyelarning ta'lim davri birinchi marta ochilganda to'rt yil edi, ammo keyingi yillarda ular olti yilga aylantirildi. Abdulhamid II hukmronligi davrida

<sup>5</sup> Bayram Kodaman, Abdülhamid Devri Eğitim Sistemi, Türk tarih kurumu basımevı, Ankara 1991, s. 67.

<sup>6</sup> Bayram Kodaman, Abdülhamid Devri Eğitim Sistemi, Türk tarih kurumu basımevı, Ankara 1991, s. 68.

<sup>7</sup> Süleyman Boztepe, II. Abdülhamid dönemi idadilerde tarih ve coğrafya eğitim-öğretimi, Konya 2015, s. 25

<sup>8</sup> Bayram Kodaman, Abdülhamid Devri Eğitim Sistemi, Türk tarih kurumu basımevı, Ankara 1991, s.105.

<sup>9</sup> Süleyman Boztepe, II. Abdülhamid dönemi idadilerde tarih ve coğrafya eğitim-öğretimi, Konya 2015, s. 28

Ruşdiyeler butun mamlakat bo‘ylab tez tarqaldi va ayniqsa viloyatlarda sezilarli o‘shish kuzatildi. 1880 yildan so‘ng, Idadilarga (o‘rta maktab) ko‘proq ahamiyat berilgan, Ruşdiyelarning axamiyati pasaygan. 1892 yilda idadiler va Ruşdiyeler birlashtirilib (Litsey) muddati 3 yilgacha qisqartirildi. Shunga qaramay, imperiyaning turli qismlarida o‘rta maktablar mavjud edi<sup>10</sup>.

Qizlar uchun birinchi Ruşdiyelar 1859-yilda ochilgan bo‘lsa keyingi 47 yil ichida ularning soni 85 ga yetgani muvaffaqiyatlidir. Bu o‘shishda Sulton Abdulhamid II ning hissasi katta bo‘lgan. Sababi, Abdulhamid II davriga qadar mamlakatdagi qizlar Ruşdiyelarining soni 9 ta bo‘lib, ularning hammasi Istanbulda bo‘lgan bo‘lsa, keyingi 33 yillik davrda yana 76 ta yangi maktab ochildi va ularning soni 85 taga yetdi, ulardan 7 tasi Istanbul va qolgan 69 tasi viloyatlarda edi<sup>11</sup>.

Ruşdiye maktablarida asosan din darsi, Tarix va Jog‘rafiya, Usmonli lisoni (lug‘ati), Usmonli tili gramatikasi, hisob, boshlang‘ich arapcha va forscha, Rasm, Imlo va yozuv, Tikish, uy ishlari, musiqa o‘qitilar edi<sup>12</sup>.

Ruşdiyelardan tashqari o‘rta ta‘lim olish uchun Idadi deb nomlangan maktablar tashkil etilgan. Qizlarning Oliy ta‘limi borasida ham islohotlar amalga oshirishga harakat qilindi. Ammo aydarlik natijaga erishilmadi<sup>13</sup>.

Usmonli davlatida Qiz Ruşdiye maktablarining ko‘payishi munosabati Ayol o‘qituvchilarga extiyot paydo bo‘la boshladi. Chunki ko‘plab oilalar qizlari uchun dars beradigan o‘qituvchilar erkak kishi ekanligini bilib qizlarini maktabga yubormay qo‘ydi. Mavjud muommoni hal qilish uchun<sup>14</sup> Qizlar ta‘limining 1869-yilgi, “Maorifi Umumiy Nizomnomasi”ning 68-70 moddalarida qiz Sibyon va Ruşdiye maktablari uchun ayol o‘qituvchilarni tayyorlash maqsadida (Darulmuallimot) ochilishi rejalashtirildi va ilk marotaba 1870-yil Istanbulda Dorulmuallimot ochildi. Qizlarga oid maktablarning ochilishi va qiz maktablarining ahamiyati haqida "Xonimlar uchun maxsus gazeta" orqali xalqqa turli xil e‘lonlar berila boshladi<sup>15</sup>.

Abdulhamid II davrida Qizlarning ta‘limi borasidagi qarashlar o‘zgarib boshlaganligini qayt etishimiz lozim.

Ta‘lim, faqat og‘il bolalar uchun emas balki qizlar uchun, ham oila hayotida ham jamiyat hayotida muhim ekanligi qabul qilindi. Chunki bugunning yosh qizlari kelajakning onalaridir. Mamlakatning kelajagi ham ular tarbiyalaydigan bolalarning

<sup>10</sup> Cezmi Eraslan, Objektiften Yansiyarlara Sultan II. Abdülhamid döneminde eğitim, Üsküdar Belediyesi, İstanbul 2017, s. 45

<sup>11</sup> Şefika Kurnaz. Cumhuriyet Öncesinde Türk kadını. 1839-1923. Ankara 1991, s. 17

<sup>12</sup> Elifnur Atalay, sultan II Abdülhamid döneminde kadın ve kadının sosyal hayattaki rolü, Erzurum 2020, s.21

<sup>13</sup> Ömer Kürşat Koçyiğit, II Abdülhamid dönemindeki mesleki okulların modernleşmeye etkileri, Tekirdağ, 2019, s.25

<sup>14</sup> Gizem Öztürk, Osmanlı kadın hareketi öncülerinden hanımlara mahsus gazete’de ideal evlilik ve aileye bakış, Tekirdağ 2019, s.33

<sup>15</sup> Arzu Şeyda, Kadın eğitimi bağlamında hanımlara mahsus gazete, A.Ü.Türkiyet Araştırmaları Enstitüsü dergisi sayı29, Erzurum 2006, s.283

qo'lda. Bo'lajak onalarning bilimli yaxshi tarbiyachi bo'lishi jamiyat rivoji uchun xizmat qiladi<sup>16</sup>

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Usmonli davlatida, rivojlanish yo'lining ta'limdan kechganligini yaxshi anglagan humkdorlari, xususan Abdulhamid II davrida Jinsiyat ayirmachiligiga yo'l qo'yilmasdan qiz bolalarning ta'limi masalasi davlat darajasiga ko'tarildi. Bu borada konstitutsiyada va bir qancha hujjatlarda qarorlar qabul qilinishi, poytaxt Istambuldan tashqari viloyatlarda ham ko'plab maktablarning ochilishi, ayol o'qituvchilar tayyorlashni yo'lga qo'yilishi va bir qancha islohotlarning amalga oshirilishi bu fikrning dalilidir.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Atalay, Elifnur sultan II Abdülhamid döneminde kadın ve kadının sosyal hayattaki rolü, Erzurum 2020.
2. Boztepe Süleyman, II. Abdülhamid dönemi idadilerde tarih ve coğrafya eğitim-öğretimi, Konya 2015.
3. Dulum Sebel, Osmanlı devletinde kadının statüsü eğitimi ve çalışma hayatı (1839-1918), Eskişehir 2006.
4. Eraslan Cezmi, Objektiften Yansıyanlara Sultan II. Abdülhamid döneminde eğitim, Üsküdar belidiyesi, İstanbul 2017.
5. Kodaman Bayram, Abdülhamid Devri Eğitim Sistemi, Türk tarih kurumu basımevi, Ankara 1991.
6. Kurnaz Şefika, Cumhuriyet Öncesinde Türk kadını. 1839-1923, Ankara 1991.
7. Öztürk Gizem, Osmanlı kadın hareketi öncülerinden hanımlara mahsus gazate'de ideal evlilik ve aileye bakiş, Tekirdağ 2019.
8. Parmaksiz Esmâ, II.Abdülhamid dönemi (1876-1909), eğitim sistemi eğitim yapıları ve askeri Rüşdiyeler, İstanbul 2008.
9. Şeyda Arzu, Kadın eğitimi bağlamında hanımlara mahsûs gazete, A.Ü.Türkiyet Araştırmaları Enstitüsü dergisi sayı29, Erzurum 2006.

<sup>16</sup> Arzu Şeyda, Kadın eğitimi bağlamında hanımlara mahsûs gazete, A.Ü.Türkiyet Araştırmaları Enstitüsü dergisi sayı29, Erzurum 2006, s.283